Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24321310

ta’minlashning ustivor yo’nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

Investitsiya loyihalari, bizning iqtisodiyotimizning rivojlanishida juda muhim o'rni bor. Ularni amalga oshirishda, Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi bilan ishlash, loyihalarni moliyalashtirish jarayonida yo'l harakatini aniqlash va loyihalarni samarali ravishda amalga oshirishda juda muhimdir. Shuningdek, moliyalashtirish va investitsiya sohasidagi yangiliklarni ham nazorat qilish, ularning yanada rivojlanishiga o'z hissamizni qo'shishga imkon beradi.Jamiyatimizda investitsiyalar va moliyalashtirishning muhim ahamiyati oshib ketmoqda. Investitsiya loyihalari va moliyalashtirish jarayonida amalga oshiriladigan qarorlarimiz va harakatlarimiz, bizning iqtisodiyotimiz va jamiyatimizning yanada rivojlanishida muhim o'rin o'ynaydi.Investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning yanada rivojlanishi uchun shu kabi tashkil etuvchilarning boshqarilishiga yordam beradi. Ularga o'z muvofiqlarini topishda va investitsiya loyihalarini samarali ravishda amalga oshirishda qo'llanadigan zaruriy ko'rsatkichlar beriladi.

Xulosa

Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, bizning investitsiya loyihalarimizni maqsad va mazmuni bo'yicha tahlil qilishda ham yordam beradi. Ularning xizmatlari, bizning investitsiya loyihalarimizni qulaylik va samarali ravishda boshqarish imkonini ta'minlaydi. Ularning ko'rsatkichlari, investitsiya loyihalarimizni moliyalashtirish jarayonida foydali savollar va kamchiliklarni aniqlashda yordam beradi.Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi, investitsiya loyihalarimizni moliyalashtirish jarayonida xizmat ko'rsatishni kengaytirishni ham rejalashtiradi. Ularning innovatsion yondashuvlari, bizning investitsiya loyihalarimizni yanada rivojlantirishga yordam beradi va ularning muvaffaqiyatli amalga oshirilishiga olib keladi..

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 21 iyundagi PQ-3796- sonli qarori.

2.Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil.// uza.uz. 16.01.2017

3. Mamarasulov U.M. Iqtisodiyot va bozor munosabatlari. - T.: «Navruz», 2016.

4. O’zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi rasmiy ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi https://mf.uz/

SANOAT KORXONALARINI ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA INNOVATSIYALAR O’RNI

Alimova Dilafruz
Guluston Davlat Universiteti tayanch doktoranti

Abstract:Ushbu tezisda bugungi rivojlanish davrida sanoat korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, bu bo‘yicha qilinadigan ishlar va uning statistik tadqiq etishning ilmiy uslubiy asoslari ochib berilgan va sanoat korxonalari faoliyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarning mintaqaviy xususiyatlari tahlil qilingan. Shuningdek bugungi rivojlangan davrda sanoat korxonalarini inson, davlat, jamiyat hayotidagi o‘rni haqida fikr bildirilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, korxona, innovatsiya, qo‘shimcha qiymat, diversifikatsiya, omil, moliyaviy-iqtisodiy resurslar.

Kirish

Published: 23.12.2024

Cite this article: Alimova Dilafruz (2024). Sanoat korxonalarini ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda innovatsiyalar o‘rni. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24321310

© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

Har qanday milliy iqtisodiyotning rivojlanishi uning hududlarini muvozanatli va barqaror rivojlanishiga bog‘liq bo‘ladi. Mintaqalar va ularning hududlarini barqaror rivojlanishida esa sanoat tarmoqlarining ahamiyati yuqoridir. Chunki sanoat tarmoqlari iqtisodiy o‘sish sur’atini ta’minlash bilan bir qatorda, ishlab chiqarishni diversifikatsiyalash va mahalliylashtirilishini rag‘batlantirish orqali iqtisodiyotning raqobatbardoshligini o‘sishiga zamin yaratadi. Sanoat sohasida qazib olingan, ishlab chiqarishda yaratilgan barcha xomashyolarni qayta ishlash, ulardan turli xil mahsulotlar ishlab chiqarish hisobiga diversifikatsiyalashuv jarayonlari takomillashadi. Dunyo tajribasida rivojlangan va yuqori o‘sish sur’atlariga ega bo‘lgan mamlakatlar amaliyoti ko‘rsatishicha, ular muvaffaqiyatlari asosan sanoat tarmoqlarida, xususan qayta ishlovchi sanoat korxonalaridagi tuzilmaviy o‘zgarishlar natijasida yuzaga kelgan.

Tahlil va natija

Korxonalar innovatsion faoliyatining shakllanishi va rivojlanishi yoki darajasi o‘zgarishi ma’lum bir omillar ta’siri natijasida sodir bo‘ladi. Korxona innovatsion faoliyatini boshqarishni obyektiv va har tomonlama tadqiq etish davomida, unga ta’sir o‘tkazuvchi omillarni aniqlash va tizimlashtirish muammosi dolzarb va yetarlicha ishlab chiqilmagan bo‘ladi.

Innovatsion faoliyat omili deganda, korxona innovatsion o‘sishining jadalligi va tavsifiga ta’sir o‘tkazuvchi shartlar, sabab va ko‘rsatkichlarni tushunamiz. Bunda innovatsion jarayon, ko‘plab omillarning o‘zaro ta’siri natijasi sifatida maydonga chiqadi. Har qanday korxonaning maqsadi uning faoliyati asosida avvaldan o‘ylangan pirovard natijaga erishishdir. Korxona o‘z oldiga ongli ravishda maqsad qo‘yib, fikriy model yarata oladi va obyektiv sharoitlarni hisobga oladi.So`ngi yillarda Sanoat korxonalarining soni qanchaga ko`paydi?

1-jadval

O’zbekiston Respublikasi hududlari bo’yicha yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

№	Viloyatlar	Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari	Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari
1	Farg`ona	11058	1965
2	Samarqand	8854	1642
3	Qashqadaryo	5605	1641
4	Namangan	7888	1497
5	Toshkent Sh	16779	1564
6	Toshkent.V	9998	1317
7	Xorazim	4794	1187
8	Andijon	9887	1062
9	Navoi	3985	962
10	Jizzax	4080	867
11	Qoraqolpag`Iston.Res	3633	853
12	Surxandaryo	4853	679
13	Buxoro	5089	652
14	Sirdaryo	2302	320

1-jadval ma’lumotlaridan ko’rinib turibdiki, hududlar bo’yicha yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari bo’yicha Farg’ona, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlari yuqori o’rinlarni egallayotgan bo’lsa, eng past ko’rsatkichlar Surxondaryo, Buxoro va Sirdaryo viloyatlariga to’g’ri kelmoqda. Korxonaning innovatsion faoliyatiga uning sohaga tegishliligi alohida ta’sir o‘tkazadi. U aytarli darajada xususiy, mahalliy va xorijiy

investorlarni jalb qilishga sharoit yaratadi. Boshqa shu kabi sharoitlarda ham aynan qaysi sohaga tegishlilik omili investitsiyalarni o‘ziga jalb qilish ko‘lamini oshiradi.

Xulosa

Bizning fikrimizcha, tadqiqotning natijalari korxona innovatsion faoliyati darajasini aniqlash va amalga oshirishni amalga oshirishga imkon beruvchi va oqibatda sanoat korxonalari innovatsion faoliyatini baholash usullarini takomillashtiruvchi kompleks ko‘rsatkichlarni ishlab chiqishga sharoit yaratib beradi. Shuningdek, har bir hududdada sanoat korxonalarini innovatsion asosda rivojlantirish orqali qo‘shimcha qiymat yaratish mintaqa iqtisodiyotini rivojlantirishning lokomotivi bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman, xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, bugungi kunda sanoat korxonalari mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirishdagi etakchi drayver bo’lib xizmat qilmoqda. Shuning uchun, sanoat korxonalarini yanada rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko’tarilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Khasanova G.D., Rashidov A. Sanoat korxonalarida innovatsion strategiyalarni shakllantirish.Buxoro. 2014. 308-310 b.
2. Burxanov, A. (2023). QISHLOQ XO ‘JALIGIDA INNOVATSIYON IQTISODIYOTGA O ‘TISHNING ZAMONAVIY MUAMMOLARI. Iqtisodiyot va ta’lim, 24(4), 37-42.
3. Бурханов, А. (2023). ИННОВАЦИЯ–ГЛАВНЫЙ ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ И ДОХОДОВ СЕЛЬСКОГО ХОЗЯЙСТВА. Innovatsion texnologiyalar, 50(02), 121-129.
4. Gulizahro, T., Mamlakat, D., Sarvinoz, A., & Sabina, J. (2023). AGROSANOAT MAJMUASINING RAQAMLI PLATFORMALARINI RIVOJLANTIRISH. TA'LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI, 3(11), 49-54.

THE INTEGRATION OF LEAN MANUFACTURING IN GREEN ECONOMY FOR SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF UZBEKISTAN

Hoshimov Abror, DSc
Department of Management, Economics and Humanitarian disciplines
Avazbekova Jasmina
Faculty of Business Management
Turin Polytechnic University in Tashkent, Tashkent
Emails: abror.hoshimov@polito.uz , jasmina.avazbekova@polito.uz

Abstract. This study examines how the integration of lean manufacturing principles with green economy will enhance Uzbekistan’s industrial efficiency and minimize environmental impacts within country framework. Over the last years, Uzbekistan is navigating significant economic reforms, the need for sustainable development practices becomes increasingly critical. Lean manufacturing aims to maximize value while minimizing waste and it has a potential role in fostering a green economy by improving resource efficiency and decreasing carbon emissions. In this paper more than 20 research works and reports were analyzed, to know future opportunities, predictions in case of practices how combination of lean manufacturing and green sustainability can impact to environmental sustainability of Uzbekistan.

Key words: Lean manufacturing, Green sustainability, Uzbekistan’s environmental conditions, Economic reforms, waste reduction.